



O'TKIR KORONAR SINDROMLI BEMORLARDA EKG-TELEMETRIYA TEXNOLOGIYASI YORDAMIDA MIOKARD INFARKTINING OLDINI OLISH SAMARADORLIGI

Fattaxov N.X.

Abdulxakimov A.R.

Abduraxmonov A. SH.

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Respublika tez tibbiy yordam markazi Farg'ona viloyati filiali

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16352637>

Yurak-qon tomir kasalliklari, ayniqsa o'tkir koronar sindrom (O'KS), zamonaviy tibbiyotda o'lim va ish qobiliyatini yo'qotish holatlarining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. O'KS, odatda, ST-segment ko'tarilishi bilan kechadigan miokard infarkti, xavfli aritmiyalar va yurak etishmovchiligining tezkor rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Jahon Sog'liqni saqlash Tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilda yurak-qon tomir kasalliklari tufayli dunyo bo'yicha 18 milliondan ortiq o'lim holati qayd etilgan.

So'nggi yillarda shoshilinch tibbiy xizmatga EKG-telemetriya texnologiyasining joriy etilishi orqali chaqiruv joyida real vaqtda tashxis qo'yish, masofaviy kardiolog maslahatini olish va bemorni ixtisoslashgan markazga tezkor ravishda yo'naltirish imkoni yaratildi. Ushbu innovasion yondashuvning profilaktikadagi klinik samaradorligini aniqlash amaliyot nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqsad. O'tkir koronar sindrom tashxisi bilan shoshilinch tibbiy yordamga murojaat qilgan bemorlarda EKG-telemetriya texnologiyasining erta tashxislash va infarkt rivojlanishini bartaraf etishdagi klinik samaradorligini tahlil qilish.

Material va usullar. Ushbu tahlil 2025 yil 1 yanvardan 13 fevralgacha bo'lgan davrda Farg'ona viloyatida yurak og'rig'i bilan tez tibbiy yordamga murojaat qilgan 17 nafar bemorni qamrab oldi. Barcha bemorlarga chaqiruv vaqtida EKG suratga olinib, telemetriya orqali masofadan kardiolog maslahatiga yuborildi. ST-segment ko'tarilishi qayd etilgan bemorlarga ixtisoslashgan markazda koronarografiya o'tkazilib, stent qo'yildi. Bemorlar yoshi, jinsi va xavf omillari (gipertoniya, semizlik, chekuvchilik, diabet, nasliy moyillik) bo'yicha tahlil qilindi. Statistik tahlil SPSS 25.0 dasturi yordamida amalga oshirildi.

Natijalar

- Barcha 17 (100%) bemorda ST-segment ko'tarilishi qayd etilgan;
- Barchasiga EKG-telemetriya orqali masofaviy tashxis qo'yilib, kardiolog maslahatiga asosan yo'naltirilgan;
- Hamma bemorga koronarografiya o'tkazilib, stent qo'yilgan;



- O'rtacha shifoxonaga etkazish vaqti — $2,4 \pm 1,1$ soat;
- Miokard infarkti, o'lim yoki nogironlik holatlari qayd etilmagan (0%).

Xavf omillari tahlili:

- **Gipertoniya** — 100% (17 bemor)
- **Semizlik** — 41.1% (7 bemor)
- **CHekuvchilik** — 41.1% (7 bemor)
- **Nasliy moyillik** — 23.5% (4 bemor)
- **Qandli diabet** — 11.8% (2 bemor)

YOsh bo'yicha taqsimot:

- 60 yoshdan katta — 58.9% (10 bemor)
- 40–60 yosh — 41.1% (7 bemor)
- 40 yoshgacha — 0% (0 bemor)

Jins bo'yicha taqsimot:

- Erkaklar — 70.6% (12 bemor)
- Ayollar — 29.4% (5 bemor)

Xulosa. Farg'ona viloyatida EKG-telemetriya texnologiyasi asosida amalga oshirilgan masofaviy tashxislash tizimi o'tkir koronar sindromli bemorlarda miokard infarkti, o'lim va nogironlik holatlarining oldini olishga xizmat qilgani bilan yuqori samaradorlikni namoyon etdi. Bemorlarda bir nechta xavf omillarining mavjudligiga qaramasdan, barcha holatlarda o'z vaqtida tashxis va davolash taktikalari qo'llanilgan. Tez tibbiy yordam va ixtisoslashgan kardiologiya markazlari o'rtasidagi telemetriya hamkorligi klinik amaliyotda hayotiy ahamiyatga ega mexanizm sifatida o'zini oqladi.

Adabiyotlar:

1. Yuldashev O.Yu., Mirzakarimova G.Z. Ostre koronarnye sindromy i sovremennye podxody k diagnostike i lecheniyu // Kardiologiya. – 2022. – Vol. 62. – No. 5. – P. 45–51.
2. Toirov S.S., Saidova M.U. Rol telemeditsiny v sisteme neotlojnnoy medicinskoy pomoshchi // Tibbiyotda innovatsiyalar. – 2023. – No. 3(17). – P. 21–26.
3. Karimov D.R., Rasulov A.K. Effektivnost primeneniya EKG-telemetrii u bolnyx s infarktom miokarda // Meditsina va Amaliyot. – 2023. – No. 2(10). – P. 11–15.
4. WHO. Cardiovascular diseases (CVDs). Fact sheet. [Online] Available at: [https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/cardiovascular-diseases-\(cvds\)](https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/cardiovascular-diseases-(cvds)) [Accessed: 10-Jul-2025].
5. Mirsaidov R.A., Usmanova L.K. Vliyanie rannei diagnostiki na isxod u bolnyx s OMI // Rossijskij kardiologicheskij zhurnal. – 2021. – No. 4(136). – P. 34–39.